

**YOSHLAR ORASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINING PASAYISH  
SABABLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

*Saydullayeva Dilnoza Oybek qizi*

*Toshkent davlat Jahon tillari universiteti,*

*Filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili*

*fakulteti 2-kurs 2462-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiya rivojlangan davrda yoshlar orasida kitobxonlik madaniyati darajasining pasayish sabablari va ularni rivojlantirish yo‘llari yoritib o‘tiladi. Maqolada yoshlarning kitob o‘qimaslik sabablari, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ko‘rib chiqiladi. Kitob nafaqat inson tafakkuriga, bilim darajasi va madaniy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Muammoni hal qilishda ta’lim tizimida kitobxonlikni rivojlantirish, ijtimoiy tadbirlar tashkil etish va zamonaviy texnologiyalarimizdan samarali yo‘lda to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy texnologiyalar, kitobxonlik, yoshlar, madaniyat, tafakkur, bilim, ijtimoiy tarmoqlar.

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi insonlarning hayotiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Mobil telefonlar, planshetlar, ijtimoiy tarmoqlar va video platformalar insonlar hayotining ma’lum bir ko‘p qismini qoplab olganligi sababli, ular o‘z vaqtini tog‘ri taqsimlay olishmaydi. Bu esa kitob o‘qish uchun ajratilgan vaqtni kamaytiradi. Vaqtning ko‘p qismi mobil telefon, planshet, ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar bilan o‘tkazilsa, inson miyyasi ham shu muhitga o‘rganib qoladi va o‘zini boshqara olmay qolishi mumkin. Shu bilan birga, oilalarda va ta’lim dargohlarida kitobga qiziqishni rag‘batlantirish yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Kitob o‘qish inson tafakkurini rivojlantiradi, bilim darajasini oshiradi va madaniy tomondan ya’ni madaniyatli gapirish va fikrlashlarni rivojlantiradi. Shu sababli kitobxonlik jamiyatimiz uchun muhim omil hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniyning qarashlarida “...insonga katta sharaf ko‘rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch armug‘on etilgan. Shu sababdan, insonning ma’naviy qiyofasi uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lishi uchun u yuksak ahloqli, bilimli, ma’rifatli bo‘lmog‘i darkor ....” – deya ta’kidlaganlar. Ma’rifatda, ziyolikka, komillikka erishish avvalo mutolaa bilan, ilm-fan sirlarini to‘g‘ri va puxta egallash bilan qo‘lga kiritiladi. Bu borada eng yaqin yordamchi kitobdir. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan betakror mo‘jiza, o‘zgacha bir manfaatli kashfiyot desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Kitob insonni tarbiyalash xususiyatiga ega bo‘lgan ega yaqin hamroh, do‘stdir. Kitob haqida uning kamolotga yetishidagi o‘rni haqida qimmatli fikrlash nihoyatda ko‘pdir. Kitob

bizga barcha muvaffaqiyat eshiklarini ochsa-yu, nega ko‘p vaqtimizni biz uchun dushman bo‘lgan narsalarga sarflashimiz kerak?

### **Kitobxonlik madaniyatining pasayish sabablari va ularni rivojlantirish yo‘llari.**

So‘nggi yillarda yoshlar o‘rtasida kitob o‘qish ko‘rsatkichi pasayishiga ba’zi bir omillar sabab bo‘lib kelmoqda:

**1. Texnologik omillar:** Zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va video platformalar kitob o‘qish uchun ajratilgan vaqtlarni o‘g‘irlamoqda. Afsuski, zamonaviy texnologiyalar jamiyatimiz hayotida muhim o‘rinni egallab olgan. Telefon, ijtimoiy tarmoqlar va turli video platformalarda insonlarning axborot olish usullariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. To‘g‘ri, axborot texnologiyalari rivojlangan davrda zamonaviy texnologiyalardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko‘rsatkichi yuqori ko‘rsatishi bu tabiiy holat. Ammo bu zamonaviy texnologiyalar davri bo‘lsa-da, ulardan me’yorida va to‘g‘ri maqsadda foydalanish muhimdir. Aks holda, bu holat vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslikka, texnologiyalarga qaram bo‘lib qolishga va kitobxonlik madaniyatining pasayishiga olib keladi. Bu yo‘lni rivojlantirish usuli internet, elektron kutubxonalar va mobil ilovalardan samarali foydalanish orqali kitob o‘qish imkoniyatlarini kengaytirish. Fikrni chalg‘itadigan ilovalarga limit qo‘yish.

**2. Madaniy va ijtimoiy omillar:** Oilalarda kitob o‘qish muhiti yetarli shakllanmagan, madaniy tarbiyani yetarli bo‘lmagasi, maktablarda kitobxonlikni rag‘batlantirish yetarli emas. Oilalarda kitob o‘qish muhitini yaratish ota-onadan boshlanadi. Xalqimizda bir maqol bor “Qush inida ko‘rganini qiladi” deyilganidek, kitobxonlik avvalo oiladan boshlanishi kerak. Afsuski, yosh ota – onalar o‘zlarini kitob o‘qimaganligi sababli o‘z farzandlarini ham shu muhitga o‘rgatib qo‘yishmoqda. Bundan tashqari, o‘quv dargohlarida kitobxonlik bo‘yicha bir qancha kamchiliklar ham bor. O‘quv dargohlarida yoshlar ko‘proq bayram va turli tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rishga jalb etilayotgani sababli kitobxonlik tadbirlari e’tibordan chetda qolib bormoqda. Bunga sabab qiziqish uyg‘otadigan tadbirlar, an’anaviy kitob kunlari yoki tanlovlarning muntazam ravishda tashkil etilmasligidir. Bu omillarni rivojlantirish yo‘llari shundan iboratki, haftada ikki marotaba kitobxonlik tadbirlari, tanlovlar va haftaning Payshanba kunlari kitoblar kunini tashkil etish, kitobga qiziqtiradigan teatr, sahna chiqishlarini va turli mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Maktab va universitetlarda kitob klublari tashkil etish va hafta yakunida klub a’zolari bilan kitob tahlilini yo‘lga qo‘yish. Shu bilan birga, oilada kitobxonlik muhiti yaratish, yoshlarning kichik yutug‘i uchun ota-onalar rag‘batlantirish sifatida kitob sovg‘a qilish va ular bilan birga kitob o‘qish orqali kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mumkin. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish natijasida yosh avlodning tanqidiy fikrlash qobiliyati, ijodkorligi, so‘z boyligi, g‘oyalarni oshirish va hayotiy muammolarni hal qilish kabilarni oshiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, hozirgi kunda yoshlarni kitobxonlikka targ‘ib qilish maqsadida turli tadbirlar, konkurslar va klublar tashkil etilmoqda va oilaviy rag‘bat, zamonaviy texnologiyalar samarali foydalanish orqali rivojlantirilmoqda. Kitobga qiziqishni oshirish yosh avlodning dunyoni anglashligini, bilim darajasini, tafakkurini, g‘oyalarini aniq yoritib berishga va hayotiy muammolarni to‘g‘ri yo‘l bilan hal qilish orqali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatimizning madaniy darajasini yuqori darajada saqlashga juda katta yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vaetova, E. An’anaviy va elektron kitoblar orasidagi afzallik va kamchiliklar. [Elektron manba]. URL: <https://ru.scribd.com/document/774674052/> (Murojaat sanasi: 15.03.2026).
2. N.N. Andreyeva. An’anaviy va electron shakldagi kitoblar: ularning zamonaviy madaniyatga ta’siri (ilmiy maqola)
3. <https://ru.scribd.com/presentation/801366316/Kitob-o-qish-va-ijodkorlik-kuchli-aloqa-pptx>
4. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. I tom. – Toshkent: Fan, 1968. – 488 b.